

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 161 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdurimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlar.....	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV TIZIMLARINI NAZARIY ASOSI



Sultonov Davronjon Rustam o'g'li

O'zbekiston respublikasi Bank-moliya akademiyasi
Biznes va menejment fakulteti magistri

Annotatsiya: Maqolada banklarda chakana to'lov tizimlari nazariy asosi yoritilgan hamda horijiy davlatlarda AQSh, Yevropa tajribasi bo'yicha berilgan taklif va tavsiyalar O'zbekiston amaliyoti tomonidan, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat "Milliy banki" AJ hisobotlarini tuzish jarayonida qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy bank, tijorat bank, qonun, farmon, chakana to'lov tizimi, masofaviy bank xizmatlari, SMS-banking, Internet-banking, Tap-to-phone tizimi, Mobil-banking, Supermarket-banking, moliyaviy savodxonlig.

Abstract: The article covers the theoretical basis of retail payment systems in banks, and the recommendations and suggestions given in foreign countries based on the experience of the USA and Europe are developed by the practice of Uzbekistan in the process of compiling reports of the National Bank of the Republic of Uzbekistan for foreign economic activity.

Key words: Central Bank, commercial bank, law, decree, retail payment system, remote banking services, SMS-banking, Internet-banking, Tap-to-phone system, Mobile-banking, Supermarket-banking, financial literacy.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы розничных платежных систем в банках, а рекомендации и предложения, данные в зарубежных странах на основе опыта США и Европы, развиваются практикой Узбекистана в процессе составления отчетов Национального банка Республики Узбекистан по внешнеэкономической деятельности.

Ключевые слова: Центральный банк, коммерческий банк, закон, указ, розничная платежная система, дистанционное банковское обслуживание, SMS-банкинг, Интернет-банкинг, Tap-to-phone system, Mobile-banking, Supermarket-banking, финансовая грамотность.

KIRISH

Hozirgi davrda bank-moliya tizimi raqamli texnologiyalar asosida rivojlanib borayotgan bo'lib, bu holat to'lov tizimlarining takomillashuvini ham taqozo qilmoqda. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga tezkor, ishonchli va xavfsiz to'lov xizmatlarini ko'rsatish orqali chakana to'lov tizimlarining roli kundan kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, elektron bank xizmatlari, mobil ilovalar va masofaviy to'lov mexanizmlari orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish banklararo raqobatni kuchaytiribgina qolmay, balki butun moliyaviy tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Chakana to'lov tizimlari nafaqat ichki bozorda to'lovlarni amalga oshirish, balki xalqaro hisob-kitoblarni soddalashtirish, elektron tijoratni rivojlantirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Jahon amaliyotida, xususan AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida chakana to'lov tizimlari raqamli transformatsiya orqali sezilarli darajada modernizatsiya qilinmoqda va ularning ijobiy tajribasi O'zbekistonda ham joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, prezident farmon va qarorlarida bank sohasining raqamlashtirilishini jadallashtirish hamda zamonaviy chakana to'lov tizimlarini keng joriy qilish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu bois, ushbu maqolada banklarda chakana to'lov tizimlarining nazariy asoslari, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda milliy amaliyotdagi joriy etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, "O'zmilliybank" AJ misolida chakana to'lov tizimlarining hisoboti va amaliy tavsiyalari ishlab chiqiladi.



Dolzarliligi: Global sharoitida banklar zamonaviy xizmatlarni joriy qilmoqda shu xizmatlardan asosan chakana to'lov tizimi rivojlanib takomillashib bormoqda, buni natijasida bank mijozlarga tez, hafsiz va 24/7 xizmatlarini taqdim etmoqda. Jahonda banklar raqamli shaklga to'liq holda o'tish imkoniyatini kengaytirib, noziktab iste'molchilarni ehtiyojlarini o'rganib ularga xizmat qilmoqda. Hozirda shiddatli vaqt ma'salasida banklar qisqa fursatda va oson hisob-kitoblarni samarali tashkil etmoqda. Buni natijasi o'laroq banklarga ishonch oshganligi, daromadni o'sganligiga guvoh bo'lmoqda. Bugungi kunda yoshiga yetgan yuz ming fuqaroga mos ravishda tijorat banklari filiallar soni 2023 yil 1-yanvar holatiga 2,6 mingtani tashkil etgan [1].

Yurtimizda tijorat banklari tomonidan aholiga taqdim etilayotgan chakana to'lov tizimlarini tubdan isloh qilindi va oldingi yillarga nisbatan ushbu bank xizmatlari bozori ancha rivojlanganligini, bank xizmatlarini ommaboplashtirish, aholiga universal bank xizmatlarini taqdim etish borasida bank tizimida bir qator ishlar olib borilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, shunga qaramasdan bank xizmatlarini takomillashtirish va ularni amalga oshirish amaliyotida ba'zi muammolar mavjud. Bunday muammolar qatoriga: chakana mijozlar bilan hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishda zamonaviy yondashuvlar mavjud emasligi; Chakana to'lov tizimlarining xavfsizligi, uzluksiz ishlashi va ishonchlilik darajasi rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirganda yetarli emasligi, shuningdek, aholi tomonidan bank omonatlariga nisbatan qiziqishning sustligi kabi holatlarni kuzatish mumkin. Shu munosabat bilan, mamlakatimiz tijorat banklari oldiga «Bank ishining ilg'or xalqaro tajribasini o'rganish, bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi shakllarini joriy etish, naqd pulsiz to'lovlar bo'yicha innovatsion yechimlarni, jumladan, kontaktsiz va mobil texnologiyalarni rivojlantirish va ilgari surish» kabi vazifalar belgilangan bo'lib hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chakana to'lovlar iqtisodiyoti bo'yicha adabiyotlarning bir qismi to'lov tizimining rivojlanishi va iste'molchilarning tanlovi roliga qaratilgan. Humphrey va boshqalar [2] uch turdagi savdo nuqtalarida ishlatiladigan to'lov vositalariga bo'lgan iste'molchi talabini baholash uchun model ishlab chiqqanlar: cheklar, naqd pul (bankomatdan naqd pul yechib olish miqdori va narxi orqali ifodalangan) hamda debit kartalardan foydalanish. Ular bu model orqali cheklar va kartalar o'rtasida o'zaro almashinish (ya'ni birini ikkinchisi bilan almashtirish) effekti mavjudligini aniqlaganlar.

VISA [3] tomonidan o'tkazilgan Global Insight tadqiqotiga ko'ra, so'nggi yigirma yil ichida AQShda iste'molchilar sarfi 6,5 trillion dollarga oshgan. Bundan tashqari, ushbu tadqiqotda kartalardan foydalanishning cheklar va naqd pullarga nisbatan tobora ortib borayotgani qayd etilgan. Demak, iste'molchilar vaqt va xarajat jihatidan qulayroq bo'lgan to'lov vositalaridan foydalanish orqali foyda ko'rishayotgani ko'rinmoqda. Bundan tashqari, Banca d'Italia [4] tadqiqotiga ko'ra, to'lov tizimining tobora samaraliroq bo'lishi mamlakatlarga real iqtisodiyot sohasida ko'proq foyda olish imkonini beradi.

Avvalgi adabiyotlarda bozor iqtisodiyotlarida to'lov tizimlari va infratuzilmalarning uzluksiz va xavfsiz ishlashi muhim ekanini alohida ta'kidlab o'tilgan. Mijozlarning ortib borayotgan ehtiyojlariga mos ravishda har xil to'lov vositalarining mavjud bo'lishi hamda ularning optimal qo'llanilishi nihoyatda muhim hisoblanadi. To'lov tizimlari va bozor infratuzilmalari "butun tizim bo'yicha muhim ahamiyatga ega" ekanligi tan olingan, chunki ular iste'molchidan iste'molchiga va tijorat bitimlarini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu orqali ular umumiy iqtisodiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi [5].

Iste'molchilar kengroq to'lov imkoniyatlari mavjud bo'lishini qadrlashadi, ayniqsa ular keng qabul qilinadigan bo'lsa. Bu esa omonatlardagi mablag'larga osonroq kirish va tezkor kredit olish imkoniyatlarini anglatadi. Xuddi shunday, savdogarlar ham bitimlarning tezroq bajarilishi, xavfsizlikning yuqoriligi va qog'ozga asoslangan operatsiyalar bilan bog'liq xarajatlarning kamayishi kabi afzalliklarga ega bo'lishadi.

Haqiqatda ham, bozorga kirishdagi to'siqlar va xarajatlarni kamaytirish yoki bartaraf etish evaziga samarali to'lov tizimi savdo operatsiyalari, xizmatlar ko'rsatish hamda moliyaviy tranzaksiyalarni soddalashtiradi va iqtisodiy munosabatlarni kuchaytiradi. Natijada, iste'mol va savdo hajmi oshadi, bu esa ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlab, umumiy iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi [6].

Yaqinda Scholnick va boshqalar [7] shunga o'xshash tahlilni amalga oshirdilar, lekin bu safar Humphrey va boshqalarning [8] mamlakatlar darajasidagi ma'lumotlari o'rniga batafsil bank darajasidagi ma'lumotlardan foydalandilar va ular ATM va EFTPOS (elektron fondlarni uzatish orqali amalga oshiriladigan kartali to'lovlar) o'rtasida ham almashinish effekti mavjudligini aniqladilar. To'lov tizimlaridagi innovatsiyalar jamiyat uchun umumiy foyda keltiradi: yangi elektron to'lov vositalaridan foydalanish xarajatlarni kamaytiradi va tranzaksiyalarni osonlashtiradi, bu esa ham iste'molchilar, ham chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar uchun manfaatlidir. Pul mablag'larini o'tkazish osonlashadi, iste'molchilarning xarid qobiliyati va savdo hajmi ortadi [9]. Holti Banka [10] o'zining "Naqd puldan elektron to'lovlarga: mikroiqtisodiy, makroiqtisodiy va chakana savdo siyosati bo'yicha to'lov tizimlari" nomli PhD dissertatsiya ishida tijorat banklarining bugungi kunda chakana xizmatlar sohasini rivojlantirishi kelajakda yuzga kelishi mumkin bo'lgan raqobatlarida yutib chiqishiga eng kata qadam



deb hisoblaydi. Garri Leinonen [11] o'zining "Chakana to'lov tizimlarining rivojlanishi" nomli ilmiy izlanishida "Chakana to'lovlar - iste'molchilar va firmalar tomonidan schyot-fakturalar va xaridlar bo'yicha muntazam hisob-kitoblar - tranzaksiyalar soni bo'yicha to'lov tizimlari tomonidan amalga oshiriladigan tranzaksiyalarning asosiy turi hisoblanadi" deya ta'kidlab o'tgan. H.K Skottning [12] fikricha tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini rivojlantirishi, birinchi navbatda tijorat banklarining rentabellik darajasini oshiradi, ikkinchi o'rinda bank xizmatidan foydalanuvchilarning imkoniyatlarini kengaytiradi deya ta'kidlab o'tgan.

Chakana to'lov tizimlarining rivojlanishiga texnologik o'zgarishlar, mijozlarning talablari, qonuniy muhit va raqobat kabi omillar kompleks ta'sir ko'rsatishini Bodie. Z [13] va boshqalar o'zlarining "Finance. Prentice Hall" nomli asarida moliya tizimida texnologik yangiliklarning, shu jumladan, elektron to'lovlarning o'sishini tahlil qilib, ularning bank xizmatlarining samaradorligi va mijozlar qulayligiga ta'sirini o'rganishgan. Ularning fikricha, raqamli to'lov tizimlari banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini beradi.

P. Gomber [14] va boshqalar "Digital Finance and FinTech: current research and future research directions" nomli ilmiy maqolasida fintex kompaniyalarining bank sohasiga ta'siri, shu jumladan, mobil to'lovlar va blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi o'rganishgan. Mualliflar raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishida banklar va fintech startaplarining hamkorligini muhim omil deb hisoblashadi.

Mahalliy iqtisodchilarimizdan D.To'ychiyev va boshqalar [15] tomonidan 2023-yilda chop etilgan adabiyot sharhida O'zbekiston tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini tushunish uchun asos bo'ladigan ilmiy ishlar, tarixiy izlanishlar va zamonaviy tahlillar to'liq ko'rib chiqilgan. To'ychiyevning yondashuvi bank faoliyatining nazariy, amaliy va texnologik jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda turli istiqbollarni sintez qilishga e'tibor qaratilgan.

Sh.R. Yunusova [16] o'zining "Retail Banking Products in Uzbek Commercial Banks: A Comprehensive Overview" deb nomlangan ilmiy maqolasida mamlakatimizdagi tijorat banklarining chakana xizmatlar sohasini tahlil qilishga e'tibor qaratgan.

L. Ergashevaning [17] ilmiy izlanishlaridagi natijalari oddiy pul kreditlashdan murakkab mijozlarga yo'naltirilgan chakana bank xizmatlarigacha bo'lgan evolyutsiyani kuzatib, dastlabki bank amaliyotlarini o'rganishni ko'rsatdi.

D.B. Igamberdiyeva [18] bugungi kunda mamlakatimizda tijorat banklarining chakana to'lov faoliyatini kengaytirilishi bir muncha vaqtni va mablag'ni talab qiladi. Shuning uchun ham ushbu jarayonni revolyustion emas balkim evalyutsion qat'iy reja va dasturlarni ishlab chiqib, amalga oshirish orqali erishish mumkun.

Tadqiqot metodologiyasi

Hozirda masofaviy xizmatlarning rivojlanishi bank xizmatlarining 24/7 rejimda, xavfsiz va qulay shaklda taqdim etilishiga zamin yaratdi. Shuning natijasida jadval ma'lumotiga asoslangan holda chakana bank xizmatlari bilan chakana to'lovlar tizimini ohshash va farqli jihatlariga to'xtalishni joiz deb topdik.

1-jadval. Tijorat banklarda chakana bank xizmatlari va chakana to'lov tizimlarini umumiy va farqli jihatlar [19]

Umumiy			
№	Belgilar	Chakana bank xizmatlari	Chakana to'lov tizimlari
1	Mijozlar	Ikkalasi ham jismoniy shaxslar va kichik bizneslar uchun mo'ljallangan	
2	Bank ishtiroki	Ikkala tizimda ham banklar ishtirok etadi yoki xizmat ko'rsatadi	
3	Moliyaviy operatsiyalar	Har ikkisi ham pul bilan bog'liq xizmatlarga xizmat qiladi	
4	Raqamlashtirish asosida	Ikkisi ham raqamli texnologiyalar asosida ishlaydi	
Farqi			
№	Belgilar	Chakana bank xizmatlari	Chakana to'lov tizimlari
1	Maqsad	Moliya xizmatlarini ko'rsatish (kredit, omonat)	To'lovlarni amalga oshirish
2	Xizmat turi	Keng qamrovli (kredit, omonat, hisob, karta)	Maxsus (faqat to'lov va hisob-kitob)
3	Texnologik platforma	Bank ichidagi tizimlar	Banklararo va umumiy to'lov platformalari
4	Shartnoma munosabati	Odatda bank bilan shaxsiy hisob ochiladi	Ko'pincha bir martalik to'lov operatsiyasi
5	Xizmat ko'rsatish muddati	Uzoq muddatli (kredit, omonat, xizmatlar)	Tezkor, qisqa muddatli (xarid to'lovi)
6	Regulyator	Markaziy bank nazorati	Markaziy bank va ayrim hollarda to'lov provayderlari nazorati



1-jadvalda o'hshash jihatlarida to'rttasini keltirgan bo'lsak farqli jihatlarida esa oltita belgilarini keltirdik umuman olganda chakana bank xizmatlari moliyaviy xizmatlar bo'lsa chakana to'lov tizimlari elektron tizimlardir. Bu ikkisi bir biridan ajralmagan holda ishlash yangi xizmatlarni va daromadni oshishiga olib keladi shu bilan, birga aholiga ishonchli va sifatli xizmatlar soni ortadi.

Biz ilmiy tadqiqotimizda tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini AQSH, Yevropa, va qo'shni davlatlardan Qozog'istoni o'rganib taxlil qildik va O'zbekiston amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan holatlarni chuqur o'rganadik.

Taxlilda o'nta ko'rsatkich tijorat banklarida chakana to'lovlar tizimini rivojlanishiga yangi tez, ishonchli va arzon xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshiradi asosan to'lovlar, innovatsiyalar, raqamlashtirish darajasi va xavfsizlik darajalariga alohida to'xtalib o'tamiz.

2-jadval. Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi holati [20]

№	Ko'rsatkichlari	AQSH	Yevropa
1	Asosiy to'lov tizimlari	ACH, FedNow, Zelle, Visa/Mastercard	SEPA, TARGET2, Visa/Mastercard
2	To'lov tizimining egalari	Federal Reserve, xususiy kompaniyalar	Yevropa markaziy banklari va banklararo tizimlar
3	To'lov tezligi	FedNow real vaqt, ACH 1-2 kun	SEPA Instant real vaqt, odatiy SEPA 1 kun
4	Kartalar turi	Kredit va debet kartalar keng qo'llanadi	Kredit, debet, elektron kartalar keng qo'llanadi
5	Mobil to'lovlar	Apple Pay, Google Pay, Venmo, Zelle	Apple Pay, Google Pay, Samsung Pay, SEPA Mobile
6	Banklararo integratsiya	Ko'p to'lov tarmoqlari va platformalar	Yagona Yevropa to'lov maydoni (SEPA)
7	Innovatsiyalar	Blockchain, fintech, stablecoin, API banklar	Raqamli identifikatsiya, PSD2, Open Banking
8	Raqamlashtirish darajasi	Juda yuqori, ko'p yangi texnologiyalar joriy etilgan	Yuqori, standartlashtirilgan va tartiblangan
9	Xavfsizlik	2FA, token, biometrik autentifikatsiya	PSD2 xavfsizlik talablariga javob beradi
10	Elektron invois va avtomatlashtirish	Keng joriy etilgan, avtomatik to'lovlar mavjud	Yevropa bozorida keng tarqalgan

2-jadvalda ko'rish mumkin AQShda asosan ACH, FedNow, Zelle Visa/Mastercard keng qo'llaniladi, Yevropada SEPA, Target2 va Visa/Mastercard qo'llaniladi bu rivojlangan davlatlar tajribasidan bu to'lovlarni yurtimizga tadbiq etish juda muhimdir.

ACH ijobiy tomoni bu arzonligi, xavfsizligi va ommabopligi bo'lsa salbiy tomoni minimal bir ish kuni maksimal uch ish kunini o'z ichiga oladi bu esa, xalqaro to'lovda qulay holat emas. FedNow real vaqt rejimida ishlaydigan tizim bo'lib, uni ijobiy tomoni 24/7 ishlaydi har qanday banklarga to'g'ri keladi lekin bu tizimda bir muammo bor yani, hozirda hamma banklar bu tizimga to'liq ulanmagan. Zelle tez va juda qulay shaklda to'g'ridan-to'g'ri pul o'tkazmalarini amalga oshirish mumkin uni salbiy tomoni firibgarlik xolatlarini oldini olish yuqori emas. Visa/Mastercard hozirda bu tizim jahon darajasida faoliyatini olib boradi ammo, kommissioni to'lovi yuqori va firibgarlik holatlar uchraydi. SEPA eng asosiy xususiyati juda arzon tez ishlaydi va yagona standartlarga asoslangan. Bu tizimni noqulayligi faqat yevro hudud uchun faoliyatini olib boradi va boshqa chet el valyutalari bilan ishlamaydi. Target2 bu tizim katta katta pullar harakatini amalga oshiradi bu uning yutug'i salbiy tomoni esa, kichik o'tkazmalarga mos emasligi va kommissioni to'lovni kattaligi.

AQShda ikki faktorli autentifikatsiya keng va majburiy qo'llaniladi, token keng qo'llaniladi, biometrik autentifikatsiya smartfon va aeroportda ishlatiladi, PSD2 to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilmaydi, PIN kod bank kartalarda asosan mavjud, SMS-kod 2FA uchun mavjud, QR-kodlar to'lov va identifikatsiyada ishlatiladi va tranzaksiya monitoring juda rivojlangan.



Yevropada ikki faktorli autentifikatsiya PSD2 asosida majburiy qo'llaniladi, PSD2ga mos tokenlar, biometrik autentifikatsiyasi maxfiylikni hisobga olgan holda ishlaydi, PSD2 majburiy, PIN kod bank kartalarda asosan mavjud, SMS-kod o'rniga PSD2 bilan cheklangan, QR-kod to'lov va xizmatlarda ishlatilsa, tranzaksiya monitoringda PSD2 & AML asosida faol amal qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini takomillashtirish yo'llari, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarning qo'llanilishi, mijozlarning talab va ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, banklararo hamkorlik va milliy to'lov infratuzilmasining samaradorligini oshirish masalalarini o'rganish shuningdek, banklarning naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish, xavfsizlik darajasini oshirish va chakana to'lovlar xizmatlarining sifatini yaxshilashga doir strategik yo'nalishlarni oshirishga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari chakana xizmatlarining nazariy asoslari, ularning turkumlanishi va huquqiy asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

- Tijorat banklari xizmatlarini o'rganishda avvalo bank xizmatlari chakana va korporativ xizmatlarga ajratilishi lozim;
- Bank chakana xizmatlarini o'rganishda ularni ma'lum bir mezonlar asosida tasniflash bunday xizmatlarni boshqarishda ko'maklashadi;
- Hech qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda bank xizmatlari chakana va korporativ xizmatlarga ajratib ko'rsatilmagan va ularning mohiyati, xususiyatlariga e'tibor qaratilmagan;
- Tijorat banklarining chakana xizmatlari ba'zi turlari bo'yicha huquqiy asos yaratilgan, ular ushbu sohani rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi;
- Tijorat banklari jismoniy shaxslar bilan ishlashdan unchalik manfaatdor emas. Tijorat banklarining chakana xizmatlari ko'p huquqiy me'yorlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ularni amaliyotga tadbiq qilishda kamchiliklar majud.

Tavsiyalar: O'zbekiston Respublikasi bank tizimida bank chakana to'lov tizimlarini rivojlanishi va huquqiy asoslari shakllanish bosqichlari tadqiq etilib, har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari aniqlash, yangi xizmatlarni joriy etish, xorijiy davlatlar amaliyotini tizimli tahlil qilish asosida mamlakatimiz tijorat banklarida chakana to'lov tizimini tashkil etish va xavfsizlik darajasini joriy qilinishini o'rganish o'ta muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://cbu.uz>-O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
2. Humphrey, D. B., Kim M. and J. Vesala (2001) "Realizing the Gains from Electronic Payments:
3. VISA (2003) "The virtuous circle: electronic payments and economic growth", Global Insight.
4. Banca d'Italia (1999) "White Paper on Payment System Oversight, Objectives, Methods, Areas of Interest".
5. Cirasino, M. and A. Garcia (2008) "Measuring Payment System Development", Working Paper, Financial Infrastructures Series, The World Bank
6. Singh, V. and M. Zandi (2010) "The Impact of Electronic Payments on Economic Growth", Moody's Analytics.
7. Scholnick, B., Massoud N., Saunders A., Carbo-Valverde S. and F. Rodriguez-Fernandez (2008) "The Economics of Credit Cards, Debit Cards and ATMs: A Survey and Some New Evidence", Journal of Banking and Finance, 32, 1468-1483.
8. Humphrey, D. B., Snellman J. and J. Vesala (2001) "Substitution of Noncash Payment
9. Berger, A. N. (2003) "The Economic Effects of Technological Progress: Evidence from the Banking
10. H. Banka, "Naqd puldan elektron to'lovlarga: mikroiqtisodiy, makroiqtisodiy va chakana savdo siyosati bo'yicha to'lov tizimlari", Merilend universiteti, Kollej Park, Falsafa fanlari doktori, 2016 yil.
11. Leinonen, H (2000): "Elektron dunyo uchun to'lov tizimlarini qayta ishlab chiqish", Finlyandiya banki muhokamasi 17/2000, (www.bof.fi).
12. Skott, HS (2015). Chakana to'lov tizimining ahamiyati: Chakana to'lov Tizimlar konferentsiyasi, Garvard yuridik maktabining xalqaro moliya bo'yicha dasturi Tizimlar.
13. Bodie, Z., & Merton, R. C. (2000). Finance. Prentice Hall. 2. Gomber, P., Koch, J. A., & Siering, M. (2017). Digital Finance and FinTech: current research and future research directions. Journal of Business Economics, 87(5), 537-580.
14. Gomber, P., Koch, J. A., & Siering, M. (2017). Digital Finance and FinTech: current research and future research directions. Journal of Business Economics, 87(5), 537-580.
15. Otabek, Arziqulov, To'ychiyev Dilshod. "tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish yo'llari." Zamonaviy ilmiy va texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali (2023): 158-167.
16. Sh.R. Yunusova. "Retail Banking Products in Uzbek Commercial Banks: A Comprehensive Overview". Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 -0892 Vol 13 Issue-02, Dec -2023. 26-31



17. Ergasheva, L. (2023). Muammoli kreditlar va uni monitoring qilish tartibi. Innovatsion rivojlanish Ta'lim faoliyati, 2(5), 299-302.
18. D.B. Igamberdiyeva. "Tijorat banklarida chakana to'lov qobiliyati va uni rivojlantirish imkoniyatlari tahlili". "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali | 1 0-soN. 2024. 879-891
19. <https://cbu.uz>-O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
20. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/country/uzbekistan>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
